

AMIR OLIMXON DAVRIDA AMIRLIKNING TASHQI SIYOSATI

Rahmonov Oybek Ravshan o'g'li

Buxoro davlat universiteti

Tarix va yuridik fakulteti.

70220303 Tarixshunoslik manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

(mamlakatlar buyicha) mutaxassisligi magistiranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10962585>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro amirligining tashqi va ichki siyosati Sayid Amir Olimxon davrida qanday bo'lganligi, amirning siyosatdagi kamchiliklari va xatolari haqida bir qancha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bundan tashqari amirlikning boshqa davlatlar bilan olib borgan savdo aloqalari va mamlakatga tashrif buyurgan sayyoh tarixchilarning bergan ma'lumotlari haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, tashqi siyosat, ichki siyosat, savdo-sotiq aloqalari, tarixchi sayyohlar.

THE FOREIGN POLICY OF THE EMIRATES IN THE PERIOD OF AMIR OLIMKHAN

Abstract. In this article, some information about the foreign and domestic policy of the Bukhara Emirate during the time of Syed Amir Alim Khan, the shortcomings and mistakes of the emir in politics are given. In addition, information is given about the trade relations of the command with other countries and information given by tourist historians who visited the country.

Key words: Emirate of Bukhara, foreign policy, domestic policy, trade relations, historical tourists.

ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА ЭМИРАТОВ В ПЕРИОД АМИРА ОЛИМХАНА

Аннотация. В данной статье приводятся некоторые сведения о внешней и внутренней политике Бухарского эмирата во времена Сайеда Амира Алим-хана, о недостатках и ошибках эмира в политике. Кроме того, приводятся сведения о торговых отношениях командования с другими странами и сведения историков-туристов, посетивших страну.

Ключевые слова: Бухарский эмират, внешняя политика, внутренняя политика, торговые отношения, исторические туристы.

KIRISH

1910-yilda otasi Abdulahad Xon vafot etgach, taxtga Sayid Amir Olimxon o'tirdi. O'sha yili Rossiya Imperiyasi Imperatori Nikolay II tomonidan Oliy martabaga ko'tariladi. 1911-yilda Said Olimxonga Hazrati Oliylari Imperator Svistasida general-mayor unvoni beriladi.

Boshqaruvining boshida u sovg'alar olmasligini, boshqa vazir va boshliqlarga pora olishni man etishini va soliqchilar va boshliqlarni xalqdan olgan soliqni o'z manfaatlarida qo'llamaslikni amr etdi. Biroq vaqt o'tib vaziyat o'zgarib ketdi, ushbu intrigalar oqibatida yangi qonunlar chiqarmoqchi bo'lganlar Moskva va Qozonga yuborildi. Said Olimxon esa boshqaruvini an'anaviy tarzda davom ettirdi.

Sayid Olimxon o'z boshqaruvi davomida boshqaruvda ko'plab xatolarga yo'l qo'ydi, mamlakat tobora tanazzulga yo'l tutdi.

Buxoro amirligi Rossiya Imperiyasiga qaram hisoblansada Said Olimxon o'z davlatida Amir maqomiga ega edi. Said Olimxinning pullariga Sankt-Peterburgda Masjid va Buxoro Amiri Uyi qurildi. 1915-yilning 30-dekabr kuni general-leytenant maqomiga ega bo'ldi va Ter Kazaklari qo'shinida general-adyutant maqomigacha ko'tarildi.

Buxoro amirligining podsho Rossiyasiga tobeligi amir Olimxon zamonida (1910—20) yanada ortdi. Amirlikda yettita rus xususiy bankining shu'basi ish olib borardi. Birinchi jahon urushi boshlanishi bilan amirlik aholisining ahvoli yanada og'irlashdi. Xuddi shu davrga kelib jadidlik harakati asosida yosh buxoroliklar partiyasi faoliyati kuchaydi. 1917-yil Fevral inqilobi munosabati bilan bu partiya amirlikni podsho Rossiyasi bo'yinturug'idan qutqazish, ba'zi islohotlar o'tkazish ishiga kirishdi. Yosh buxoroliklar rus bolsheviklari bilan hamkorlikda 1918-yil martida amir hukumatini ag'darishga urindilar. Ammo bu harakat muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 1920-yil 2-sentabrda Buxoro bosqini natijasida amirlik tugatildi.

Amir Olimxon Yevropa va Osiyoning rivojlangan davlatlaridan mamlakat hududiga kirib kelayotgan ta'lim tizimiga oid o'zgarishlarga ijobiy munosabatda bo'lib, dunyoviy fanlarni o'qitilishiga qarshilik qilmagan. Shu o'rinda Amir Olimxon va u yuritgan ichki va tashqi siyosat haqida qisqacha o'z xulosalarimni bildirib o'tsam: Buxoro amirlari chor Rossiyasining sodiq xizmatkori sifatida mamlakatda ruslar manfaatiga zid keladigan biror bir yangilik qila olishmagan.

Afg'oniston, Eron, Hindiston, Xitoy, Angliya, Turkiya bilan juda zaif diplomatiya saqlanib qolingan, bu ham aslida ruslar nazoratida bo'lgan. Buxoro hukmdorlari ichida Olimxon davri o'zgarishlar davriga to'g'ri kelganligi bilan bog'liq. Bir tomondan tashqi siyosat ruslar nazoratida, bir tomondan yangi maktab va mamlakatni rivojlantirish uchun harakat qilishmoqda, bir tomondan oddiy xalq og'ir soliq va ruslar zulmiga qarshi sabr-kosasi to'lib borayotgan edi. Yana bir tomondan diniy muttasiblik kuchayib ketganligi natijasida aniq fanlar rivojlanishi ancha ortda qolgan edi. Natijada esa Buxoro rivojlanishdan to'xtab chet davlat qaramligiga tushib qolgan edi.

Buxoro amirligi Amudaryoning sharqiy sohillaridan, ya'ni Rossiya Pomiridan to Xivaning Toshkent dashtlarigacha cho'zilib boradi. Rossiya bilan Buxoro amirligi o'rtasida bo'lgan urushdan oldin 1868-yili va bolsheviklar hukumati tasarrufida(1920) bo'lgan chog'da Buxoro amirligi shimol tarafdin Qizilqum sahrosi bilan chegaradosh edi. G'arb tarafdin Sirdaryo bilan hamda Qo'qon xonligi yerlari bilan, janubdan esa Afg'oniston, sharqdan turkman o'lkasi va Xiva dashti bilan chegaradosh. Buxoro amirligi aholisi XX asr boshlarida 2,5-3 mln atrofida (ruslar bosib olishdan oldin 3-3,5 mln) Uning maydoni 225000 km. Buxoro amirligi aholisining asosiy qismi o'zbek, turkman, qirg'iz, tojik, qozoq, yaxudiy va arablardan iborat. Mehnatkashlar Qashqadaryo, Surhondaryo, Zarafshon, Kofirnahang va G'iyshlar tevaragida dehqonchilik qilishgan. XIX-asr oxiri-XX asr boshlarida Buxoro amirligi hududiga Angliyaning e'tibori yanada kuchayishi va ular tomonidan Mir Izzatuloh, J. Trebek kabi vakillarini yuborilishi rus hukumatini ancha havotirga solib qo'ydi. Bunga javoban ruslar ham mintaqada savdo munosabatlarini va o'z ta'sir doirasini kengaytirish, rus savdogarlari uchun imkon qadar ko'proq imtiyoz va imkoniyatlarga ega bo'lish maqsadida Buxoro amirligi va unga qo'shni hududlarga o'z elchilarini yuborishga jiddiy e'tibor qarata boshladi.

Buxoro amirligi Xiva, Qo'qon, Afg'oniston, Eron, Xitoy bilan ham tashqi siyosat olib borgan, bu siyosat ko'pincha savdo-sotiq, fan sohalari bilan cheklangan. Buxoro amiri Afg'on amiri bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini o'rnatgan. Chor Rossiyasi va bolsheviklarga

qarshi Afg`on amiridan harbiy yordam ham olib turgan. Bilamizki, o`sha davrda Angliya Afg`onistonga, Rossiya esa O`rta Osiyoga siyosiy-hududiy jihatdan da`voda edi. Shunday holatda Buxoro amiri ruslar zulmidan qutulish uchun afg`onlar va ular orqali inglizlardan har tomonlama yordamlar olib turgan. Inglizlarni Buxoro amiri bilan keng diplomatiya o`rnata olmasligiga bitta sabab bor edi: Ingliz va rus shartnomasi (1870-1885). Bu shartnomaga ko`ra inglizlar afg`on bilan cheklanadi va O`rta Osiyoga bo`lgan da`vosidan voz kechadi. Ruslar esa Buxoro, Xiva bilan cheklangan holda afg`on va Hindistonga hududiy da`vo qila olmas edi. Lekin shunday holatda ham baribir bu kelishuvga doimiy ham amal qilishmagan.

Buxoro amirligining tashqi siyosatida asosiy rol ni savdo-sotiq aloqalari tashkil qiladi.

Ko`plab mamlakatlar bilan savdo aloqalari amalga oshirilgan bular haqida esa tarixchi sayyohlarning kitoblaridan ma`lumotlarni bilib olishimiz mumkin.

Buxoro amirligining tashqi siyosat va diplomatiya tarixi birqator sharqshunos, o`lkashunos va tarixchi olimlar tomonidan muayyan darajada ilmiy asosda o`rganilgan. Shu bilan birga, mazkur izlanishlarda tashqi siyosat va diplomatiya tarixiga oid bo`lgan manbalar yetarli tarzda tahlil etilgan deb bo`lmaydi. Masalan, A.A.Semenov tomonidan amir Haydarning Rossiya podshohi Aleksandr-I ga yo`llagan maktublari, G.A.Mixaleva tomonidan esa Buxoro amirligi bilan Rossiya o`rtasidagi savdo-sotiqqa oid aloqalar o`rganilgan. Lekin shunga qaramay, ushbu masalalar yuzasidan bir qator sharqshunos, o`lkashunos va tarixchi olimlar tomonidan muayyan darajada ilmiy tadqiqotlar olib borilganligini e`tirof etish lozim. Ular qatorida xususan, Y.K. Meyendorf, A.A. Semyonov, P. Ivanov, O.D. Chexovich, N.A. Xalfin, G.A. Mixaleva, A. Vildanova, A.R. va boshqalar Bular qatorida Orenburg general-gubernatori Perovskiyning Buxoroning siyosiy ahvolini, uning ichki va tashqi savdosini bilishga qiziqib, shu maqsadda Buxoroga maxfiy ko`rsatma bilan P.I.Demezoni elchi qilib jo`natadi.

Elchi Buxoroning Rossiyaga munosabati masalasini va O`rta Osiyoning boshqa davlatlar bilan savdo aloqalarini o`rganishi kerak edi.

P.I.Demezoni mulla kiyimida Mulla Jafar ismi bilan Buxoroga jo`nagan. Tarjimonlik va o`qituvchilik faoliyati unga sharq tillari, sharq urf-odatlar va sharqona odobni doimo takomillashtirib borishga imkon yaratgan, hamda Sharq mamlakatlarida sodir bo`layotgan voqealardan doimo xabardor bo`lib turishiga yordam bergan. P.I.Demezoni 1833-1834-yillarda Buxoroda bo`lib, Buxoro tarixi bilan bog`liq ko`p ma`lumotlarni to`plagan. Keyinchalik bu xabarlar tarixchi N.A.Xalfin tomonidan nashr qilingan. Sayohatchi o`zining esdaliklarida Buxoroning qo`shni davlatlar bilan savdo aloqalari to`g`risida juda muhim ma`lumotlar qoldirgan.

Uning xabariga ko`ra, "Shaxzoda Abbas Mirzoning Xurosonga so`nggi yurishi Buxoroning Eron bilan savdo aloqalarini to`xtatib qo`ygan". Buxorodan Eronga ketayotgan karvon Xuroson chegarasida talangan. Shunday qilib, Demezoni, Buxoroni Eron bilan bog`lovchi savdo yo`li yopib qo`yilgan va bu holat buxorolik savdogarlarining Astraxan orqali Eron bilan savdo qilishiga sabab bo`lgan edi, deb xabar beradi. Erondan Buxoroga boradigan an`anaviy karvon yo`lining xavfsizligiga ishonmaslik oqibatida Abbas Mirzo vafotidan keyin 1833-yilda Mashhaddan Buxoroga bor yo`g`i 63 ta tuyadan iborat bo`lgan karvon kelganligi aytib o`tiladi.

Demezoni Buxoro bilan Hindiston o`rtasidagi an`anaviy savdo aloqalarining rivojlanganligini ta`kidlab o`tadi. Shu bilan birga, boshqa tadqiqotchilardan farqli o`laroq,

Demezoni Buxoro bozorlarining torligini, Hindiston uchun talabgor bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishning Buxoroda yo'lga qo'yilmaganligini eslatib o'tadi.

Bu esa, deb yozadi u, hind va afg'on savdogarlarining Buxorodan faqat qimmatbaho metallar va unchalik ko'p bo'lmagan buxoro mollarini olib ketishiga sabab bo'lgan. Buxorodagi hind mollaridan asosan indigo buyog'i eslatib o'tiladi. Uning ta'kidlashicha, so'nggi 8 yilda Buxoroda nil bo'yog'ining 1 pudi 12 tillo turgan. 1 tillo 15 rublga teng bo'lgan. Buxoroda pullarning kamligi sababli nil bo'yog'ining 1 pudi 12 tillo dan 4 tilloga tushib qolgan.

Demezoni, Hindistondan Buxoroga an'anaviy mollar qatorida ko'plab ingliz mollarining kirib kelishini tashvish bilan tilga oladi. Uning aytishicha, inglizlar Buxoroga zar parcha matosi, muslin deb ataluvchi yupqa gazlama, ip gazlama, chit, gulli hamda yo'l-yo'l matolar keltirilgan. Zar parchaning katta qismi Qo'qon orqali Buxoroga keltirilgan. Qizig'i shundaki, zar parcha matosi Buxoroga ko'proq Qo'qon orqali kirib kelgan.

Ingliz tovarlari Buxoroga Eron orqali ham kirib kelgan. Demezoni Buxorodalik vaqtda Mashhaddan so'nggi karvon kelgan bo'lib, bu karvonda 3 toy ingliz matolari - gulli bo'z, chit, muslin va boshqa tovarlar keltirilgan. Uning fikricha, bu ingliz tovarlari Rossiyadan keltirilgan tovarlarga qaraganda ancha sifatli bo'lib, tez sotilgan. Ingliz tovarlarining doimiy ravishda ko'plab keltirilishining oqibatida ular O'rta Osiyo bozorlarini butunlay egallagan, bu esa rus savdosi uchun xavfli bo'lib, Demezoni tashvishga solgan. Shuning uchun, u O'rta Osiyo, jumladan, Buxoro bozorlarida Rossiyaning manfaatlarini himoya qilish uchun zudlik bilan iqtisodiy va siyosiy choralar ko'rish zarurligini taklif qilgan. Demezoni o'z axborotida Buxoroning Eron bilan savdo aloqalarini to'liq tahlil qiladi.

U "Buxoroda Eron elchilari juda kam, chunki bu yo'l xavf-xatarga to'liq, ularni yo'lda turkmanlar tutib olib qul qilib Xivaga sotib yuborishidan qo'rqadilar. Shuning uchun Buxoroda savdo qilayotgan eronliklar o'zlarining ishonchli kishilariga ega bo'lishlarini xoxlaydilar.

Demak amirlikning siyosatini o'rganmoqchi bo'lsak bunga sahifalar ham ozlik qiladi, chunki amirlik katta hududni va ko'plab aholini o'z ichiga olgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Buxoro amirligi O'rta Osiyo xonliklari, Xitoy, jumladan Sharqiy Turkiston, Hindiston, Eron, Turkiya, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari o'rnatgan. Buxoro amirligi ayniqsa, Xitoy, jumladan, Koshg'ar bilan yaqin savdo munosabatlariga kirishgan. Buxoro Koshg'ar bilan to'g'ridan-to'g'ri savdo qilishdan tashqari Xitoyning O'rta Osiyo xonliklari, Hindiston, Eron va Rossiya bilan savdo aloqalarida vositachi rolini ham bajargan. Buxoro karvonsaroylarida Hindiston, Tibet, Koshg'ar, Quqon xonligi va Xiva xonligi, Afg'oniston, Rossiyadan olib kelingan mollar to'plangan. Mazkur savdo aloqalarida Buxoroning tashqi savdo aloqalarida, uning ko'shnilarini Marv va Hirot aholisi alohida rol o'ynagan. Buxorolik savdogarlar Marvga har xil rus tovarlarini olib kelganligini alohida ta'kidlanishi lozim.

REFERENCES

1. Семенов А.А. К истории дипломатических сношений между Россией и Бухарой в начале XIX века. Изв АН Уз ССР. -1951. -№ 1. -С. 85-95

2. Михалева Г.А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами. –Т.: 1982. –С. 80-81
3. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.; Наука, 1975. -С. 56
4. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI середина XIX в.). М.: ИВЛ, 1958.
5. Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии (первая половина XIX в.). М., Наука. 1974.
6. Maqsud, B. (2021). Buxoro bozorlari. panjakent-2021. treasury of.
7. Beshimov, M. (2020). BERUNIY “QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR” ASARINING ANAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 6(2).
8. Beshimov, M. (2021). ТАРИХ ЎҚИТИШ МЕТОДЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТУРКУМЛАНИШИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 6(6).